

## MAKTAB DIREKTORINING O'QUV VA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR BO'YICHA O'RINBOSARLARINING O'QUV JARAYONI SIFATINI BOSHQARISH MASALALARIDA RAHBARLIK FAOLIYATINING VAKOLATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

**Abduraxmonov Yodgorbek Abdulaziz o'g'li**

Toshkent shahar Shayxontohur tuman  
102-sonli kimyo va biologiya fanini chuqurlashtirib  
o'qitishga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi  
o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosari

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda maktab faoliyatida asosiy funksional vazifalarni bajaruvchi direktor o'rinosarlarining ta'lim sifatini oshirishdagi vakolatlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab, boshqaruv, strategiya, ta'lim sifati, o'quv jarayoni

So'nggi yillarda maktab ta'limi sifatini oshirish borasida, xususan tizimdag'i rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, bugungi kunda Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" sohaga oid asosiy qonun hujjati sanaladi. Qolgan normativ-huquqiy hujjatlar aynan shu hujjatga mos kelishi belgilangan.

Maktab boshqaruvida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni to'g'ri tashkil etish maqsadida bir qancha me'yoriy-hujjatlar qabul qilindi. Sohaga oid mas'ul tashkilot "Ma'naviyat va marifat markazi" ga yetarli miqdorda moliyaviy ta'minot yaratib berildi.

Hozirgi kunda yoshlarni har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliшlaridan biri etib belgilab olindi va ma'naviy-ma'rifiy soha yo'naliшida bir qancha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldag'i "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 3160-sonli qarori, 2019-yil 3-maydag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4307-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1058-sonli qarori qabul qilinganligi buning yaqqol isbotidir.

Umumta'lim maktablarda ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, o'quvchi yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosarlarining o'rni katta.

Dissertatsiyaning mazkur qismida umumiyl o'rta ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosarlari faoliyat samaradorligini oshirish hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazish, nomenklatura hujjatlarini to'g'ri yuritishlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 29-avgustdag'i 282-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Nizom mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida direktor o'rinosarlari bilimi va malakasini yanada oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-NOYABR, 2024

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining qarori, 18.01.2006 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 1541-son bo‘lgan huquqiy-hujjat asosida mактабдаги lavozimlar va ularning funksiyalari belgilab berilgan.

Unga ko‘ra:

Umumta’lim maktab (internat, gimnaziya, litsey) direktorining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimining malaka tavsiflari:

1. Umumta’lim maktab (internat, gimnaziya, litsey) direktorining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

a) ta’lim muassasasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, tarbiyaviy ishlarning yillik va oylik rejalarini ishlab chiqadi, sinf rahbarlari amalga oshiradigan tarbiyaviy ishlar rejalarining bajarilishini nazorat qiladi;

b) “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” majmuasiga kiruvchi fanlar bo‘yicha ta’lim standartlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, shu fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish, o‘quvchilarning davomati va xulqi, tarbiyaviy tadbirlarning sifati va samaradorligi monitoringini amalga oshiradi, maktabda to‘garaklar va sport seksiyalarining faoliyat yuritishini ta’mindaydi;

v) milliy an’analar, tarixiy qadriyatlar va buyuk ajdodlar misoli asosida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarni tashkil va nazorat qiladi, o‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari, ekskursiya va madaniy ommaviy ishlarni muvofiqlashtiradi;

g) pedagogik jamoaning ta’til paytidagi faoliyatini, jumladan yozgi o‘quv ta’tili davrida o‘quvchilarning kunduzgi dam olish oromgohlarida dam olishi bilan bog‘liq ishlarni muvofiqlashtiradi;

d) ta’lim muassasasi o‘quv va boshqa xonalarini o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga oid masalalarni hal qilishga xizmat qiluvchi ko‘rgazmali tashviqot va targ‘ibot vositalari bilan jihozlashni tashkil qiladi, maktab kutubxonasining ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi;

e) sinf rahbarlarining ishlarni tashkil qiladi, ilg‘or pedagogik tajriba almashish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi, tarbiyaviy ishlar sifati va natijalarini tahlil qiladi;

y) pedagogik kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda ishtirok etadi, yuqori malakali o‘qituvchilarning ilg‘or pedagogik tajribasini o‘rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi;

j) tarbiyaviy ishlar bo‘yicha metodik materiallar ishlab chiqishni, yosh mutaxassislarga metodik yordam ko‘rsatishni tashkil qiladi, o‘qituvchilarning kasb mahoratini, malakasini oshirish ishlarni olib boradi;

z) sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy faoliyatiga rahbarlik qiladi, ta’lim muassasasi tarbiyaviy ishlari holati va natijalari to‘g‘risida hisobotlar tuzadi, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil qiladi;

i) texnika xavfsizligi qoidalariga, sanitariya-gigiyena tartibiga, pedagogik xodimlar mehnatini va o‘quvchilarni muhofaza qilish qoidalari talablariga rioya qilishni ta’mindaydi;

k) o‘quvchilarning tartib-intizomi va davomati, tarbiyaviy ishlar samaradorligining nazoratini amalga oshiradi;

## Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ta’lim to‘g‘risidagi qonun. <https://lex.uz/docs/-5013007>

2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. T.: “Turon-Iqbol”.

3. Djurayev R.X. Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. Toshkent.